

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA
MASALALARI

Ahmedov Akmaljon Yusupovich
FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi
FarDU Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq mutafakkir olimlari haqida ma'lumotlar berilib, hamda ularning yozgan asarlari pedagogik jihatdan tahlil qilinib shuningdek ularning asarlaridagi ma'naviy ahloqiy tushunchalarni yoshlarning ongida shakllantirishi haqida keng ma'lumotlar yoritib berilgan*

Kalit so'zlar: *umumjahon, sivilizatsiyasi, taraqqiyot, mutafakkir, ilmiy salohiyat, ma'naviy meros, inson kamolot.*

Jonajon O'zbekistonimiz zaminidan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, umumjahon miqyosida e'tirof etilgan qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ajdodlarimizdan qolgan boy meros o'zining o'ta muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda. Vatanimiz tarixining ibrat olsa arzigulik zarvaraqlarini holisona o'rganish va ana shunday meros namunalaridan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prrezidenti I.A.Karimov "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasidagi) nutqida ta'kidlagan: "Xalqimizning tayanchi ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmog'imiz kerak".

Darhaqiqat, ajdodlar merosi o'zligimiz, ma'naviyatimiz, aslimizdir. Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o'z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodiga to'xtalsak.

Hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoriydir. Uning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo'lib, ular orasidan "Al-jome' as-saxix" alohida o'rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon qilingan. Imom al-Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritir ekan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi.

Inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan

paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o'zini tuta olishda, deb hisoblaydi. Oilaviy muhitning barqaror, tinch, oila a'zolarining sog'-salomat, to'q bo'lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo'lish ... kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uning asarlarida aks ettirilgan.

Hadisshunos alloma at-Termiziy hadislarida odamlarni ahil bo'lishga, jamoaga foyda keltirishga, do'stlik va birodarlikka da'vat etuvchi hadislar ko'p uchraydi. "Barcha musulmonlar o'zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko'rmasliklari kerak. Kimda-kim o'zining musulmon birodariga yordam qilsa, oxiratda Ollox unga yordam qiladi. Kimda-kim o'z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratini yengil qiladi".

Alloma, sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, yoshlikdanoq sog'liqni saqlashga, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi; biri sog'lik, ikkinchi bo'sh vaqt".

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi". Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiy esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Farobiy fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa, deydi alloma, faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho'qqisi – bilim olish jarayonidir.

Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy sifatlarini shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o'rin egallaydi, deydi Farobiy.

Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas'uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi.

Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog'liq holda ifodalagan. Olimning ijodida "komil inson tarbiyasi to'g'risida"gi qarashlariga to'xtalsak.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan bilimlarga erishishni da'vat etadi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi.

"Ey birodarlar: Odamlarning botiri mushkilotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir". Zero bilimli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishini uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb hisoblaydi.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya va ahloqqa oid qaysi asariga ahamiyat bermaylik bu asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizning ta'lim-tarbiyasida, ularning zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo'lishlaridagi ahamiyati kattaligiga amin bo'lamiz.

Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi. Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Yetuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib ta'limotida ham inson komilligi, kamoloti masalalari keng o'rin olgan.

Olimning eng mashhur "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) ta'lim tarbiyaga oid, har tomonlama komil inson qilib tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asari, pand-nasihatlarini yoshlarni chin ma'noda komillikka yetaklovchi asardir. Asarda ahloqiy xislatlar – insoniylik, rostgo'ylik, ishonch, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, insof, sodoqat, aql-zakovat, halollik ... kabilar ulug'lanadi. Faxr va iftixor bilan ayta olamizki, jonajon zaminimizdan jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo'shgan allomalar, faylasuf olimlar juda ko'p yetishib chiqqan. Ularning merosidan foydalanib, milliy mentalitimizni, qadriyatni an'analarimizni, ma'naviyatimizni, insoniy go'zal

hislatlarimizni, tafakkurimizni, samimiy dunyoqarashlarimizni yanada boyitish hamda o'zlashtirish mumkin. Bu har bir qalb uchun faxrga aylansin!

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sharq mutafakkirlarining bizga qoldirgan asarlarida ma'naviy ahloqiy tushunchalar va faxr va iftixor tuyg'ulari yuksak qadriyatlar kabi tushunchalarni qoldirib ketishgan. Yoshlarimiz esa mazkur asarlarni mutolaa qilib o'zlari uchun kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib, mamlakatimizning rivoji uchun o'z hissalarini qo'shmoqlari darkordir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Karimov I.A. "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XII sessiyasidagi nutqi 1993 y.

2.Abu Rayxon Beruniy. "Tanlangan asarlar" 1 tom Toshkent Fan 1968 y 151-b

3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.:"Hilol-nashr" 2013 y.

4.A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.: Muharrir, 2008 y.

5.M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.

6.M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.

7.Yusufovich, A. A. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 120-124.

8.Yusufovich, A. A. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 224-227.

9.Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.

10.Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 59-60.

11.Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).

12. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.
13. Yusufovich, A. A. (2022). BO 'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 120-124.
14. Yusufovich, A. A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(1), 572-586.
15. Axmedov, A. Y., & A'zamova, M. (2023). OILADA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 687-693.
16. Axmedov, A. Y., & Sherqo'ziyeva, Z. F. (2023). JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 432-436.
17. Axmedov, A. Y., & Sherqo'ziyeva, Z. F. (2023). PEDAGOGIK MULOQOTNING KOMMUNIKATIV ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 425-431.
18. Ahmedov, A., Turaboyeva, F., & Ulmasov, M. (2023, May). STUDENTS' PEDAGOGICAL OPINIONS TOWARDS THE MODULE-CREDIT SYSTEM. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 5, pp. 105-108)*.
19. Ahmedov, A., & Egamberdiyev, O. (2022). PEDAGOGICAL BASES OF IMPROVING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(3), 40-46.
20. Akhmedov, A., & Egamberdiyev, O. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and innovation*, 1(B4), 136-138.
21. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 59-60.